



DREAMS IN THE SPIRIT OF IMAGES

Ahmedova Sarvinoz

Student of Karakalpak State University (Nukus, Uzbekistan)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13901943>

ARTICLE INFO

Received: 26th July 2024

Accepted: 30th July 2024

Online: 31th July 2024

KEYWORDS

Motif, traditional motif, spiritual experience, poetics, hero, epic and lyric-epic character.

ABSTRACT

This article talks about the dream motif found in the psyche of characters and characters in works of art. The dream motif plays an important role in revealing the mental state of the characters in the plot of the works of art, as well as in connecting the events of the plot and the main points of the plot. It helps the artist to express his ideas clearly and effectively. In particular, this motif as an important poetic tool of spiritual analysis serves to understand what the heroes of the work feel, their spiritual and moral views, beliefs, lifestyle, thoughts, dreams, hopes, and dreams. tried to express through.

СНЫ В ДУХЕ ОБРАЗОВ

Ахмедова Сарвиноз

Студентка Каракалпакского государственного университета (Нукус, Узбекистан)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13901943>

ARTICLE INFO

Received: 26th July 2024

Accepted: 30th July 2024

Online: 31th July 2024

KEYWORDS

Мотив, традиционный мотив, духовный опыт, поэтика, герой, эпический и лиро-эпический персонаж.

ABSTRACT

В статье говорится о мотиве сна, встречающемся в психике персонажей и персонажей художественных произведений. Мотив сна играет важную роль в раскрытии душевного состояния персонажей в сюжете художественных произведений, а также в связи событий сюжета и основных моментов сюжета. Он помогает художнику ясно и эффективно выразить свои идеи. В частности, этот мотив как важный поэтический инструмент духовного анализа служит для понимания того, что чувствуют герои произведения, их духовно-нравственные взгляды, убеждения, образ жизни, мысли, мечты, надежды и мечты. пытался выразить через.

OBRAZLAR RUHIYATIDA TUSH TASVIRI

Ahmedova Sarvinoz

Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi (Nukus, O'zbekiston)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13901943>



ARTICLE INFO

Received: 26th July 2024

Accepted: 30th July 2024

Online: 31th July 2024

KEYWORDS

Motiv, an'anaviy motiv, ruhiy kechinma, poetika, qahramon, epik va liro-epik xarakter.

ABSTRACT

Ushbu maqolada badiiy asarlarda obraz va qahramonlar ruhiyatida uchrovchi tush motivi haqida so'z yuritiladi. Tush motivi badiiy asarlar syujetida qahramonlarning ruhiy holatini ochib berishda hamda syujet voqealarini, syujetning asosiy bo'g'inlarini o'zaro bog'lashda muhim o'rin tutadi. U ijodkorga o'z fikrini aniq hamda ta'sirchan qilib ifodalashga yordam beradi. Xususan, bu motiv ruhiy tahlilning muhim poetik vositasi sifatida asar qahramonlarining nimalarni his etayotganligini, ma'naviy va axloqiy qarashlarini, e'tiqodini, turish-turmushini, o'y-kechinmalarini, orzu-umidlari-yu armonini anglashga xizmat qilar ekan quyida buni misollar orqali ifodalashga harakat qilindi.

Tush tasviri adabiyotdagi eng qadimiy badiiy psixologik tahlil vositalaridan biri hisoblanadi. Bu vosita xalq og'zaki ijodi namunalaridan boshlab zamondosh yozuvchilarimiz tomonidan samarali qo'llanilib kelayotgan an'anaviy usuldir. Ushbu vosita haqida professor H.Umurov "Badiiy adabiyotdagi tushning bu shakli keyinchalik ham davom etadi. Faqat romantizmga kelib, uning vazifasi o'zgaradi: u qahramonlar ichki dunyosini, ularning nozik kechinmalarini ochish maqsadida ishlatila boshlandi. Tush syujetning oldingi voqealari bilan emas, qahramonning oldingi emotsional holati bilan bog'lanadi"[1.103] deb, juda to'g'ri ta'kidlaydi. Lekin, qahramonning bugungi emotsional holati qahramonning ertangi faoliyati uchun zamin hozirlaydi. Bu degani tush ko'rish qahramonning ertangi faoliyati, taqdiri masalasi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romanida ham tush tasviri mavjud. Matnda tush tasviri qahramonlarning psixologiyasini, yaqin kelajakda hayotda sodir bo'ladigan taqdir o'zgarishlariga ishora vazifasini bajaradi. Faqat bugina emas, qahramonlar taqdirini muayyan davr, ijtimoiy munosabatlar o'zgarishi bilan ham bog'liq qilib qoyishi mumkin. "Tush orqali yozuvchi, asosan, o'z qahramonlari ichki dunyosini, ruhiy holatini, kechinma va dramalarini, orzu-xayollarini ochishga intiladi. Tush – obrazlarni individuallashtiruvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi"[2.180]

"Nima bo'lganda ham, bir tushida yollari uzun va bir tomonga qayrilgan, haybatli oppoq otni jilovidan ushlab turgan payg'ambarimiz Amirni chorlab: "Kel, o'tir, sen hali uzoq va hayrli parvozlarga qilasan. Hech bir valiyning poyi yetmagan manzillarga yetasan", - debti. Amirning yuragi xapriqib, hayajoni bo'g'ziga tiqilgan, asta yurib otga yaqinlashibdi. Otni silabdi, so'ng uzangiga oyog'ini qoyib, bir siltanishla ustiga chiqqani asnosida uyg'onib ketibdi... tushlar Amirning kuchiga kuch g'ayratiga g'ayrat yo'lining to'g'ri ekanligi borasidagi ishonchiga ishonch qo'shardi...

- Tushimga payg'ambarimiz kirdilar va menga: "Amir chilla o'tirsin", - dedilar... demak, hammasi rost, hammasi to'g'ri. Tushimda payg'ambarimizning menga ot mindirgani ham bejiz emas. Shyton payg'ambarimizning shakli shamoyiliga kirolmaydi. Demak, mening ham Muxtorning ham tushi haqrost. Chilla o'tirishim shart!". Xayolidan o'tkazdi u. Shundan keyin



Amir boshqa hech kimdan maslahat ham yo'l-yo'riq ham so'ramadi, o'zi bilganicha, o'zi xohlaganicha tayyorgarlik ko'rди-da, ertasi azondan chilla o'tirishni boshladi.

Mazkur jarayonda muallif nutqi va personaj nutqi o'zaro sintezlashib, Amirning ruhiy holatini yoritishga xizmat qilgan. Ushbu tush tasviridan voqealar rivoji jarayonida Amirning taqdirida mudhish hodisa yuz berishi anglashiladi. Keltirilgan matndan anglashiladiki, yozuvchi Amirning mazkur holatini yoqlamaydi. Balki, diniy afsona va rivoyatlar sintezidan iborat ushbu tush tasvirida ozgina bo'lsa-da piching seziladi. Chunki, Amirdek oddiy insonning tushida payg'ambarni ko'rishi payg'ambarning Amirga chillaga kir deyishi normal holat emas.

Muallifning roman qahramonlaridan biri Amirga, din va shariatga munosabati hikoyachi nutqining turli shakllarida namoyon bo'lgan. Yozuvchining dinga, Amir kabi dindorlarga munosabati qahramonimizning chillaga kirgandan keyingi voqealar tasvirida aniq ko'rinadi.

Chillaga o'tirgan Amirning holatini va bu holatning umumiy manzarasini quyidagicha tavsiflaydi:

"Bu yo'l naqadar ulug', sehrlil va muqaddasdir! Unda inson o'zgalarga qurol yo musht ko'tarib maqsadga erishmaydi, aksincha, ongli ravishda o'zga manzilni ko'zlaydi va, avvalo, o'ziga qarshi jangga kirishadi. Ha-ha, aynan o'ziga qarshiQ biroq "O'ziga qarshi" degani bani odamning o'z nuqsoni va badnafsiga qarshi mujodalasi ekanini unutmash kerak. Zero, dunyodagi noqisliklarning barchasi odamzodning qalbi va aqlidagi nuqsonlarning tashqariga urgan aksidan bo'lak narsa emas! O'zini o'zi poklashga kirishgan har bir inson, ayni damda, dunyoni tozalashga bel bog'lagan zot hamdir.

Tasavvufda mana shu hikmat – hayotiy va amaliy haqiqat mavjud. Mohiyatan u boshdan-oyoq odobdir, yomonlikdan yuz o'girib, yaxshilikka yuzlanmoqdir, insonning o'z botinidagi nafs ajdariga qarshi sulhsiz, qurolsiz, kurashmoqdir, o'zining yukini yengillatish va o'zgaga yuk bo'lmaslikdir, o'zining foniy borlig'idan xalos bo'lib, Allohning boqiy borlig'iga qo'shilmoq va vahdat mayini sipqormoq yoki kamida shu xayrli intilishlar yo'lidagi azim kurashdir...

Xo'sh, zamonamiz kishisiga nasib bo'larmikan insonlikning bunday yuksak martabasi? Axir dunyo besh yuz ming oldingidan qanchalar o'zgarib ketgan, hayotning sur'ati, insonni harakatga keltiruvchi botiniy kuchning shiddati naqadar oshgan bo'lsa!.. Dunyoqarashlar, qadriyatlar, munosabatlar turlandi, tuslandi... Bu yo'lning manziliga yetmoq zamonamiz Amirga, masalan, sakkiz yuz yil avvalgi Amirga nisbatan ancha qiyin bo'lmasmikan? Ustiga-ustak, pirsiz-rahnamosiz... Umuman, azaliy mazmunga boorish uchun azaliy shakldan istifoda etmaklik o'zini qanchalar oqlaydi? Axir "chiroyli kiyingan" o'rta asrlar ayoli bilan yigirmanchi yuz yillikning tannozi xonimi kiyimlari naqadar bir- biriga o'xshamaydi. Lekin mazmun bir – ular o'z zamonasi tomonidan eng go'zal deb tan olingan, eng so'nggi rusumdagi liboslarga o'rgangan. Demak, g'oyalar har qancha ulug' bo'lmasin, vaqt o'tgan sayin ularga ulashmaklik yo'llari – shakllari o'zgarib borar ekan. Zero, har bir zamonuhar bir davrning o'z ruhi bo'ladiki, u shakllarga o'z muhrini muqarrar ravishda bosib boradi. Hatto mohiyat ming yillardan keyin ham o'zgarmasa-da, go'zal kiyinishga – go'zallikka intilish hanuz o'sha-o'sha bo'lsa-da... Magarki shundoq ekan, u holda nega Amir qalqib-da o'z zamonasiga qarshi isyon ko'tardi? Uning temir qafaslarini buzmakka bel bog'ladi? Ya'nikim, azaliy mohiyatga azaliy yo'l orqali erishmoqchi bo'ldi? Jonida qasdi bormidiki, har pallada, palla ne, har nafasda o'zini bo'g'ib tashlashga tayyor turgan dunyo bag'rida o'sib-unmakka umid qildi – valiyar rohini tutdi – chilla o'tirdi?..



Chillaning yettinchi kuni Amir holdan toydi. O'tirgan bo'lishiga qaramay, ko'z oldi qorong'ilashib, tinib ketaverdi. Hatto xayolan Qur'on oyatlarini takrorlashga tobi yo'l qoymay qoldi...".

Omon Muxtorning "Mir bir qiyofa" romanida bor yo'g'i faqat ikkitagina tush tasviri mavjud. Matnda tush tasviri qahramonlarning psixologiyasini, yaqin kelajakda hayotda sodir bo'ladigan taqdir o'zgarishlariga ishora vazifasini bajaradi. Faqat bugina emas, qahramonlar taqdirini muayyan davr, ijtimoiy munosabatlar o'zgarishi bilan ham bog'liq qilib qoyishi mumkin. "Tush orqali yozuvchi, asosan, o'z qahramonlari ichki dunyosini, ruhiy holatini, kechinma va dramalarini, orzu-xayollarini ochishga intiladi. Tush - obrazlarni individuallashtiruvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi"[3.180]

Romandagi birinchi tush tasviri birinchi hikoyatning birinchi manzarasida keltirilgan. Ushbu tush tasviri orqali biz bosh qahramon Abdulla Hakim va uning sevgilisi Halima haqida tasavvurga ega bo'lamiz. Unda voqealar tasviri retrospektiv xarakterga ega bo'lib, qahramonning Halimadan ayrilish sabablarini bilib olamiz. Ya'ni bunda Abdulla Hakimning talabalik yillari, Halima bila nahdu-paymon qilgan onlari, onasi bilan Halimani tanishtirishi kabi voqealar xotirlanadi. Tush tasviri jarayonida muallif tili vositasida Halimaning portreti ham yaratilib o'tilgan. Mazkur tush tasviri romanda xarakterli vazifa bajarganligi bois prolog vazifasini bajargan deyishimiz mumkin. Bu esa Abdulla Hakim va Halima bilan bog'liq syujet liniyasini oldingi voqealari mantig'i bilan bog'laydi.

"Egni bilan boshini o'rab, burchakda yotganicha, u ham shu asnoda beixtiyor ingranib:

Halimajon! Halim! Halima! - deb yubordi...

Manzillar chekinib, devorlar surinib, eshiklar qulab, bexosdan Halima xonaga kirib kelganicha, uning ro'parasida to'xtadi...

- Shuncha yil qayerda eding, Halimajon? Nega meni yo'qlamadig?! Axir, men sensiz yasholmayman-ku! - Qizga, nihoyat, dardlarini bayon qila boshladi u. - Otam yo'q, aka-ukalarim yo'q. Boshimda yolg'iz soyabonim, onam o'lib, ketganlariga ham qancha bo'ldi. Mening endi dunyoda sendan bo'lak hech kimim qolmadi! Vaqtida o'zi seni izlab shaharga kelgan edim... sen yonimda bo'lganingda, boshimga bu kunlar tushmasmidi!...

Halima birdan kipriklari namlanib, tiz cho'kib, uni boynidan qattiq quchdi.

- Bunchalik o'zingizni qon qilmang, iltimos. Hali yoshsiz. Yigit kishi uchun o'ttiz yosh nima! Siz uchun hali hammasi oldinda. Hammasi yaxshi bo'lib ketadi.

- Yo'q, o'lim shumshayib atrofimda aylanib yuribdi. Bular meni o'ldirmay qoymaydi! - pichirladi Abdulla...

- Siz o'shanda meni uchrashishga taklif qilgansiz.

Uchrashganimizda qo'limga xat topshirgansiz...

- Men senga aytolmagan so'zlarimni xatga solgandim...

- Xatda siz yozgan she'rlar ham bor edi...

- Shunday, - tasdiqladi Abdulla. - Yoshlikdan she'rga qiziqaman...

- Ayb menda. Osiylik qildim, - dedi Abdulla. - Hayajonga berildim. Sodda xayol, devona bir ishonch meni aqldan ozdirib qoydi! O'sha kungi shoshqoloqligim kasriga keyin umr boyi tutab yashadim...



- O'sha kuni oyingiz bor-yo'gil ikki og'iz so'z aytdilar. Menga tikilib turib, qishloqqa buni olib bormaysan, mazmunida: "Bu qizim juda nozik ekan-ku" dedilar. Keyin, sizga qarab: "Boyningizni qismang, o'g'lim. Yigit kishi boshini ko'tarib yuradi!" dedilar...

- Shu bilan men tiklagan imorat quladi. Hammasi tugadi! – chuqur xo'rsindi Abdulla.

- Men seni ayblamayman. Ayb menda. Men osiylik qildim, - deb yana pichirladi Abdulla...Ming shukur, axiyri bu menga nasib etdi. Men endi o'limdan qo'rqmayman!...

Halima bexosdan kirib kelgani singari bexosdan xonani tark etdi".(o'sha kitob 28-bet)

Ushbu tush tasviri orqali yozuvchi kitobxonni ayni vaziyat bilan tanishtirib, o'tmish voqealarini hozirgi va kelajak zamon bilan bog'laydi. Bu tasvir orqali Abdulla Hakim va Halima o'rtasidagi sevgi tarixining sirlari ochiladi. Abdulla Hakim tushida bir paytlar Halimaga aytishga ulgur magna qalb nidolarini to'kib soladi. Tush Abdulla Hakim bilan Halimaning diologi shaklida kechadi. Diolog oxirida "Ming shukur, axiyri bu menga nasib etdi. Men endi o'limdan qo'rqmayman!" deydi Abdulla Hakim. Tush tasvirining oxirgi jumlasini ham, shu. Bundan anglashiladiki, sevgilisini yo'qotgan Abdulla Hakim hayotda ham yo'lini yo'qotgan. Uning taqdiri poyoniga yetayotganligini anglash mumkin, bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, tush motivi asarning kompozitsion qurilishini ixchamlashtirib, uning mazmunini yanada chuqurlashtiradi va boyitadi. Voqealar bayonining izchilligini ta'minlashga, asarning badiiy-estetik fazilatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Xususan, tushning asar qahramonlari ruhiy holatini yorqin tasvirlash va ichki olamini ochib berishdagi xizmati kattadir.

Shuningdek, qahramonni qurshab turgan turli muammolar, uning dilini junbushga solayotgan ruhiy qiynoqlar va azoblar bilan o'quvchini tanishtiradi. Umuman, tush orqali qahramon ichki kechinmalari va shu kechinmalar ta'sirida uning ma'lum ruhiy kayfiyatda hayotiy voqealarga aralashuvi yoki munosabat ko'rsatishi jonli tasvirlanadi.

References:

1. H.Umurov. Badiiy ijod mo'jizalari. Samarqand. Zarafshon nashr.1992y. 103-bet
2. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. "O'zbekiston" nashriyoti. Tosh, 2020-yil. 180-bet
3. Mirziyoyev.Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. O'zbekiston nashriyoti. Toshkent-2017
4. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Tosh-1993 yil.
5. Abdulla A'zam.Fan va Din. Tafakkur. 1991-yil.
6. Abdurahmonova M. Ruhiy dunyo tasviri, «O'zbekiston» nashr., T., 1977.